

Tug'ilgan kuningiz muborak bo'lsin!

Yadro fizikasi sohasidagi yetuk olim, fan arbobi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senatori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik Bexzod Yuldashev bugun, 9 may kuni 75 yoshni qarshiladi.

Ilm-fan qahramoni, insoniyat fashizm ustidan qozongan buyuk G'alaba kunida tavallud topgan ajoyib inson, hurmatli Bexzod Yuldashev Sizni bugungi tavallud ayyomingiz bilan butun Fanlar akademiyasi nomidan chin yurakdan muborakbod etamiz!

Sizga sihat-salomatlik, uzoq umr, baxt-saodat, ijodiy baraka, oilangizga tinchlik va farovonlik tilaymiz. Farzandlaringiz va nevaralaringiz kamolini ko'rib yurishlik nasib etsin. Qalbingizdagi ezgu niyatlar ro'yobga chiqsin.

Ilm-fanni rivojlantirishdagi faoliyatingiz bardavom bo'lib, yangi muvaffaqiyatlar hamroh bo'lsin.

Yuksak ehtirom va samimiy tilaklar bilan,

Fanlar akademiyasi jamoasi